

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA  
FAKULTETI  
MUSIQA TA‘LIMI

**Jamolov Farxod Ulug‘bekovichning**

5111100 - Musiqiy ta‘lim yo‘nalishi bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Musiqqa ta‘limida ijodiy faoliyat turlari va ularni  
o‘rgatish uslublari”.



Ilmiy rahbar:

Qayumov.I.F

Buxoro – 2018

Mavzu: “Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o’rgatish uslublari”.

## Mundarija

Kirish.....	4-6
<b>I. BOB MUSIQA FAOLIYATI VA ULARNING BADIY HAMDA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.</b>	
§1.1. Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari.....	7-17
§ 1.2. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari.....	18-25
<b>II BOB. Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyat turlarini o’rgatish metodikasi</b>	
§2.1. Umumiy ta’lim maktablarida musiqqa tinglash faoliyati orqali dars samaradorligini oshirish.....	26-39
2.2. Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyatga o’rgatishni takomillashtirishning shart-sharoitlari va usullari.....	40-51
XULOSA.....	52-53
ILOVA.....	54-59
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	60-61

Mavzu: “Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o’rgatish uslublari”.

## **REJA**

Kirish.

### **I-BOB MUSIQA FAOLIYATI VA ULARNING BADIY HAMDA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.**

§ 1.1. Umumta’lim maktablarida musiqqa madaniyati darslarini fan sifatida o’qitilishi.

§1.2. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari.

### **II BOB. Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyat turlarini o’rgatish metodikasi**

§ 2.1. Umumiy ta’lim maktablarida musiqqa tinglash faoliyati orqali dars samaradorligini oshirish

§ 2.2. Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyatga o’rgatishni takomillashtirishning shart-sharoitlari va usullari

**XULOSA.**

**ILOVA**

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

## Kirish.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamiz ta'lim tizimida so'nggi yillar mobaynida yosh avlodni aqliy, jismoniy va ma'naviy kamolotga yetkazishda tub islohotlar amalga oshirildi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, tahsil oluvchilarning ta’lim-tarbiyasini takomillashtirish, madaniyatli va o‘z e’tiqodiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga bo‘lgan e’tiborni har qachongidan ham kuchaytirish zarurligiga alohida urg‘u berilgan.

Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek: “Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi”.

Umumta’lim maktablarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish shuning uchun ham muhimki, ular yosh xususiyatlariga ko'ra mustaqil faoliyat yuritish, hayotiy maqsadini belgilab olishga nisbatan jiddiy munosabatda bo'ladilar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, tahsil oluvchilarning ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, madaniyatli va o'z e'tiqodiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan e'tiborni har qachongidan ham kuchaytirish zarurligiga alohida urg'u berilgan.

Jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligi ularning qobilyati, ilmiy salohiyati hamda ilmiy dunyoqarashi bilan belgilanadi. Hozirgi davrda taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ravnaqi fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy modelida fanning tabiat va jamiyat to'g'risidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy jihatdan ta'minlash infrastrukturasi vujudga keltirish,

mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integrasiyasini tashkil etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

---

Bunday dolzarb vazifalar tizimida yosh avlodni qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim sohasidagi islohotlar faqat malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilib qolmay, balki fuqarolik jamiyatining qobiliyatlarini rivojlantirishga ham qaratilgandir. Bunday qarashlar bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini *“Musiqqa talimida ijodiy faoliyat turlari va ularni o‘rgatish uslublari”* tarzida tanlanishiga asos bo‘ldi.

---

**Tadqiqotimiz maqsadi** musiqiy ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etish yo'llari va usullaridan foydalanishning imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan yanada chuqquroq o‘rganish va maktab o‘quv tizimiga tadbiiq etish.

**Bitiruv malakaviy ishimiz obyektii** musiqiy ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etishga o'rgatish jarayonidir.

**Tadqiqotimiz predmetii** esa Musiqqa madaniyati darslarida ijodiy faoliyatni tashkil orqali o‘quvchilarning notalari erkin o‘qish va kuylashiga bo‘lgan badiiy ehtiyojini qondirish hamda qiziqishlarini shakllantirish.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida quyidagi **vazifalarni** amalga oshirdik:

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etish muammolariga doir pedagogik qarashlarni tahlil qilish.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini psixologik jihatdan o'rganish.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishning amaliyotdagi ahvolini tadqiq etish.

Musiqqa madaniyati darslari musiqaviy faoliyat turlarida musiqiy ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi imkoniyatlarini aniqlash va bu borada tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimiz **ilmiy farazini** quyidagicha belgiladik: Musiqiy ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishish mumkin, agarda,

---

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etish haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lsalar;

Musiqada madaniyati darslarida ijodiy mustaqil ish turlaridan keng foydalanilsa;

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishga undovchi mavzular tanlansa va imkoniyat yaratilsa.

**Bitiruv malakaviy ishimizning nazariy ahamiyati** musiqiy ta'limda ijodiy faoliyatni tashkil etishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilinganligi va ulardan ilmiy izlanishlar davomida foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

**Tadqiqotimizning amaliy ahamiyati** esa ilmiy tadqiqotimiz davomida Musiqada madaniyati darslarida o'quvchilarni ijodiy faoliyatni tashkil etishga doir ishlab chiqilgan tavsiyalar va ularning qo'llanuvchanligi bilan belgilanadi.

**Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosini** shaxs qobiliyatlariga doir pedagogik-psixologik qarashlar va shaxs tafakkurining jamiyat rivojiga ta'siriga doir Birinchi Prezident I.Karimov asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida kuzatish, qiyosiy tahlil, suhbat, anketa kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

---

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati:** Shu bilan aniqlanadiki, musiqada madaniyati darslarining samaradorligini, sifatini, unumdorligini yanada oshirishda ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatish uslublaridan kengroq foydalanish zarurligi isbot qilindi.

Musiqada ta'limda ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatish uslublari kengroq foydalanishning imkoniyatlari shakl tuzilishi hamda uning mazmuni yoritib berildi.

O'quvchilarning fanga bo'lgan tayyorgarliklarining darajasi va ko'rsatkichlari aniqlandi: O'quvchilarga ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatish metodlarini keng ommalashtirish samaradorligini oshirish nazariy jihatdan va tajribada asoslandi.

## **I-BOB MUSIQIY FAOLIYATLAR VA ULARNING BADIY HAMDA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.**

### **§ 1.1. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini fan sifatida o'qitilishi**

Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq , ayniqsa ,so'nggi yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalalari va ta'lim tizimini takomillashtirib , uni jahon andozalariga muvofiqlashtirish bo'yicha juda ko'plab ibratli ishlarni amalga oshirdilar. Yurtimizda musiqa san'atini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni jahon sahalorida o'z o'rnini egallashi, butun dunyoni o'zimizning milliy musiqamiz, raqs san'atimiz, boy madaniyatimiz bilan tanishtirish maqsadida olib borilgan tadbirlarini davom ettirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakat strategiyasi loyihasida ham musiqa san'atini rivojlantirishga qaratilgan masalalar ko'rsatib o'tilgan . Harakatlar strategiyasini "**Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili**"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Davlat dasturida mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

- 1.Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish
- 2.Qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.
- 3.Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish.
- 4.Ijtimoiy sohani rivojlantirish.

5.Xavfsizlik, millatlar, aro totuvlik va diniy bag'rikenglikn ta'minlash, chuqur o'ylangan o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

**Harakatlar strategiyasini “ Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturiga** muvofiq amalga oshiriladigan tadbirlar tartib raqam bilan belgilab chiqilgan edi. Shunga ko'ra 4- “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” yo'nalishining 4- “Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish” bo'limidagi tadbirlarda, yurtimizda musiqaning ahamiyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifalar belgilangan.

265-tadbir: Bolalar sportining ommaviylikini oshirish hamda musiqa va san'at ta'limini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish.

251ta umumta'lim maktabi, 12ta bolalar va o'smirlar sport maktabida sport zallarini qurish, 9ta yopiq suzish havzasini qurish va 2tasini rekonstruksiya qilish, 8ta bolalar musiqa va san'at maktabini yangidan qurish va 12tasini rekonstruksiya qilish.;

286-tadbir: Quyidagi madaniyat va san'at festevallari ko'rik tanlovlarni tashkil etish: “Bahor nafasi” xalqaro san'at festevali, “Musiqaga chorlaydi yoshlar!” madaniyat haftaligi, “Seni kuylaymiz, zamondosh!” O'zbekiston teatrlarning IV Respublika ko'rik festival, “Onam aytgan allalar” festevali, “Yoshlik bahori” Respublika yosh opera ijrochilari festevali, “Sozlar navosi” xalq cholg'ulari Respublika tanlovi, YUNESKO reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan “Shashmaqom”, “askiya”, “Palov” va boshqa nomoddiy madaniy me'roslar bo'yicha “O'zbek madaniy merosi jahon nigohida!” nomli festevali.



287-tadbir:O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nihol" mukofoti saralash bosqichlari va uni tantanali ravishda topshirish marosimini yuqori saviyada tashkil etish.

Bu tadbirlardan ko'zlangan maqsad, musiqa va san'at ta'limini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularni rag'batlantirish, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ijodiy salohiyatini yuksaltirish va kata sahnalarga olib chiqish, yoshlar e'tiborini musiqa va san'atga qaratish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, yoshlarni vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalarariga sadoqat va fidoiyluk ruhida tarbiyalashdir. Buning uchun yoshlarga puxta va keng qamrovli bilim berish, ularni fan- texnika yutuqlari bilan tanishtirib borish, darslarni zamon talabiga javob beradigan texnologiyalar yordamida tashkil etish o'qituvchi pedagoglarning asosiy vazifasi etib belgilangan.

Yurtimizda 2018 yilni " **Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili**" deb e'lon qilganimizdan yaxshi xabardorsiz, - dedi Prezidentimiz. Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib ko'yganmiz.

Shu kunlarda hukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo'lida, jami davlat va nodavlat manbalarini hisobga olgan holda, mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni ko'zda tutadi.

Dars o'quv tarbiya jarayonida tahsil maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. O'tkizilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchilarni ham qanoatlantirish uchun ma'lum darajada umumiy ba'zi bir talablarga javob berishi kerak.

Dars predmet kalendar dasturidagi o'z o'rniga ega bo'lishi, maqsadi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma'qul bo'ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo'lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Darsga qo'yiladigan didaktik talablardan yana biri shuki, beriladigan o'quv materialini sistemali ravishda osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga, o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda amalga oshirilishi kerak. Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar:

Mavzuni (kalendar) rejalashtirish asosida dars o'tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo'lishi, dars o'z vaqtida boshlanib, o'z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o'quvchilar ongli intizomi ta'minlanmog'i lozim.

Dars tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o'quv-texnik va ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'zda tutiladi. Darslar juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo'lib, darslarni bir marta doimiy ravishda mavjud bo'ladigan ko'rinish tarzida rejalashtirish va o'zgarmaydigan qotib qolgan na'muna asosida o'tkazaverish mumkin emas.

Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o'tilgan omillar qatorida mazkur sinfda ishlashning haqqoniy shart-sharoitlari. Shuningdek, o'qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan xatto ular bitta fan, bitta mavzu yuzasidan teng, yonma-yon sinflarda o'tkazilganda ham o'zining o'ziga xos jihatlariga ko'ra farq qiladi. Darsda har doim o'qituvchining maxsus «Pedagogik yondashuv tarzi» ni ko'rish mumkin. Masalan: kombinatsiyalashgan dars quyidagi ko'rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish, o'quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish. O'rganilgan material yuzasidan o'quvchilardan so'rash, o'qituvchi tomonidan yangi materialning bayon etilishi, o'rganilgan materialni mustahkamlash, uyga topshiriqlar, vazifalar berish.

Darsni yutug'i va uning natijalari nafaqat o'qituvchining tayyorligiga, balki o'quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog'liq bo'ladi. Afsuski, ushbu masalaga ko'pgina o'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e'tibor bermaydilar. O'qituvchi darslarda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni bolalarga hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqe, obro'sini saqlagan xolda yondashoshishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan xolda olib borishi lozim. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaati shakli ham farqsiz emas. O'quvchilarni o'z ism-shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqdir.

Pedagog sifatida o'zligini namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o'qituvchi tomonidan o'z xisssiyotini aks ettirishni inkor etmaydi: u darslarda faqatgina ziyrak va mehribon, quvnoq, xushyor, ko'nglichan bo'libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilingan qiyofada bo'lishi ham kerak.

O'qituvchining pedagogik optimizmi, uning o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'quv faoliyatini tashkil etishning turli-tuman shakllaridagi darsda ularning hamjihatligidagi izlanuvchanligini tashkil etish, o'quvchilarning ishlariga haqqoniy baho berish, ularga doimiy zarur yordam ko'rsatishga tayyor turishlik - bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi, o'quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy ahloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

Umumiy ta'lim maktablarida musiqa darsining asosiy maqsadi - o'qituvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iborat. Mazkur maqsad o'qituvchi oldiga o'quvchilarda musiqaviy - badiiy did ahloqiy-estetik xis- tuyg'ularni tarkib toptirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda musiqa san'atiga nisbatan qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy extiyojni kuchaytirish, musiqa savodxonligi madaniyatini shakllantirish, musiqa-davr, hayot, inson xis- tuyg'ulari va orzu-umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalar qo'yadi.

O'quvchilarda musiqaga mehr va havas uyg'otish, ularning musiqa saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim. Boshlang'ich va 9-yillik maktablarning har birida xor to'garaklari, sharoit bo'lgan maktablarda cholg'u asboblari bo'lishi kerak.

Ayni vaqtda o'quvchilarga yakka tartibda musiqa o'rgatish ishini uyushtirishga e'tibor berish, bu ishga ota-onalar jamoatchiligini jalb etish lozim. Maktabda egallangan musiqa bilimi va malakalaridan kundalik hayotda, maktabda ertalik va kechalar o'tkazishda mustaqillik, «Mehrjon», «yangi yil», «navro'z», onajonlar bayrami va musiqa-san'at

bayramlarida hamda ekskursiya va sayrlarga chiqqanda foydalanish kerak. Shuningdek, o'rganilgan qo'shiqlar uyda oila a'zolari oldida, o'rtoqlar davrasida aytilishi mumkin. 7-yillik o'qish davrida musiqa sohasida muntazam sur'atda ish olib borilishi natijasida o'quvchilar musiqa savodiga ega bo'lib, musiqa sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, kontsertlarni, radio va televideniya orqali beriladigan musiqali eshittirishlarni mehr qo'yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan kishilar bo'lib yetishishlari kerak. Bu tadbirlarni amalga oshirishda bosh tarbiyachilar, sinf raxbarlari va ota-onalar musiqa o'qituvchisiga yaqindan yordam berishlari zarur. Darsning har bir faoliyat turida doirachalar, shaqildoqlar, uchburchak, metallafon kabi turli bolalar musiqa asboblari chalish, kuy va qo'shiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblari chalinishini qo'l harakati bilan imitatsiya qilish, chapak chalish va dirijyorlik qilish kabi elementlardan keng foydalanish darslarni yanada qiziqarli va jozibali bo'lishini ta'minlaydi.

Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

1. U musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

2. Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'zi bilan, tasviriy san'at

ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san'at turlarini ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Shuning uchun, ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan.

3. Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglaganda uning yangi-yangi badiiy qirralarini xis etamiz.

4. Musiqa bolalarga aktiv emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar. Xullas, musiqa darsi o'zining aktiv psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

Shuningdek, musiqa darsi boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsini hayot bilan boglashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham, boshqa fanlardan farq qiladi.

IV. Musiqa darsining strukturasi 3 asosiy faoliyat turidan: musiqa tinglash, musiqa savodi va xor bo'lib qo'shiq kuylashdan iborat. O'rta sinflarda musiqa darsi 3 ta asosiy faoliyatlardan tuziladi:

1. Xor bo'lib kuylash
2. Musiqa savodi

### 3. Musiqa tinglashdan iborat

Boshlang'ich sinflarda esa dars faoliyatlari 5 ta bo'ladi:

1. Xor bo'lib kuylash.
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish
5. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishdan iborat bo'ladi.

Xorda kuylash - musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o'qituvchining bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi nerv xujayralari ham faol ishga tushadi. U qo'shiq kuylash davomida o'quvchilarda ijobiy xis tuyg'ularning faolligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi.

O'qituvchi sinf imkoniyatlarini hisobga olgan xolda yil davomida o'rgatish uchun 10-12 ta qo'shiq tanlaydi va ularning vokal-ijrochilik darajasi va badiiy mazmuni maktab hayotiga mosligini inobatga olib, ularning ma'lum tartibga soladi.

O'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to'g'ri va ta'sirli aytilishini taminlaydi, bolalar ovozining yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi. Bolalarning ovoz apparatlari, musiqa o'quvi yoshiga qarab o'sadi. Shuning uchun ashula aytish malakalari, ovozning asosiy elementlari: nafasni rejaga solish, tovush hosil qilish, diktsiya, soz, ansambl dasturda har qaysi o'quv yili uchun alohida-alohida beriladi. Ta'lim jarayonida bu elementlarning hammasi bir-biriga uzviy bog'lanib boradi.

Musiqqa savodi - ma'lumki, umumiy ta'lim maktabi musiqqa darslari tarkibidagi musiqqa savodi o'zining musiqqa haqidagi kompleks bilimlar doirasidan iboratligi bilan farq qiladi.

Ashula aytish jarayonida o'rganiladigan nota savodi elementlari bilan birga musiqqa savodi turkumiga musiqqa janrlari, ularning shakl va tuzilishlari, ifoda vositalari, xalq va kompozitorlik musiqqasining mohiyati haqidagi tushunchalar, ijrochilik turlari, cholg'u asboblari va ularning tovush temblari va boshqalar kiradi. 7-yillik musiqqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida mazkur bilimlar majmuasi asosida o'quvchilarning musiqqa savodxonligi tarkib topishi lozim. Bu musiqqa madaniyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Musiqqa tinglash - o'quvchilarning musiqqiy taasurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqqiy didini tarbiyalashda darsning musiqqa tinglash faoliyati katta rol o'ynaydi. Darsning bu faoliyat turida o'quvchilar musiqqa o'qituvchisi ijrosida, elektrofon, magnitofon yordamida eng nodir musiqqa asarlarining na'munali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanavozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar, san'atning katta dargoxiga ilk bor qadam tashlaydilar.

Musiqqaning san'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va hayot go'zalligini voqelik va xatti-harakatlardagi qaytarilmas, ko'z ilgamas qirralarini musiqqiy ohangdagi rang-barang bo'yoqlarda idrok etadilar, chuqurroq xis etadilar. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rnashib qolishi uchun bu kuylarning ohanglarini o'quvchilar bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. Ayniqsa, asar musiqqa asbobi ijrosida tinglanib, so'ng kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi.



Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida 2-3 marta eshittirish, har gal kuyning yangi-yangi dinamik qirralari bilan o'quvchilarni tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o'quvchilar musiqaning turli janrlari - marsh, qo'shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo'ladilar. Darsning har uch asosiy qismi alohida-alohida ajralib qolmasligi, aksincha ular bir-biri bilan uzviy bog'liq xolda dars-ning mazmuni bir butun bo'lishini ta'minlashi lozim. O'quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o'zaro uygun kuylashini mustahkamlashda ba'zan ularni (sinf saxnasi)ga chiqarib kuylatish samara beradi. Qo'shiq tugal o'rganib bo'linganch, xaftada yoki chorak oxirida o'quvchilar «Sinf kontserti» beradilar. Saxnaga chiqish, sinfdoshlari orasida o'z o'rnini topib turish, kuylaganda bir- birlarini xis qilish va o'z joyiga borib o'tirish kabi saxna madaniyatiga qat'iy amal qila borish o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga va xulqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. «Saxnada» kuylash o'quvchilarning qo'shiqni qay darajada o'rganib olganligini aniqlash, asarning ayrim jumllarini «Pishitib» olish va qo'shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkoniyatini beradi. «Sinf kontserti» o'quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etuvchi mashg'ulotga aylanadi. Yuqoridagi ijtimoiy talablarga ko'ra, maktab musiqa mashg'ulotlari birinchi-ettinchi sinflarda olib boriladi va har bir dars mashg'uloti turli faoliyatlarni bajarish, amalga oshirish orqali o'tkaziladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab musiqa darsliklarida barcha musiqiy faoliyatlar uchun mo'ljallangan materiallar ma'lum izchillik asosida, mantiqiy tarzda joylashtirilgan bo'lib, ushbu materiallarni o'quvchilarga to'laqonli tarzda etkazish va ularda ushbu faoliyatlarga nisbatan qiziqishlarni shakllantirish uchun musiqa

o'qituvchisi oldida katta pedagogik vazifa ko'ndalang turadi. Bu vazifani to'la bajarish o'quvchilarning komil inson bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

## **§ 1.2. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari.**

Ushbu paragrafda barcha musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari, ya'ni, ularni amalga oshirishda musiqa o'qituvchisidan talab qilinadigan pedagogik faoliyat, pedagogik ish usullari, o'quvchilar bilan ijodiy jarayonni amalga oshirish imkoniyatlari va metodlari to'g'risida tahliliy fikrlarni bayon etamiz.

Pedagogikada rivojlantiruvchi ta'lim metodlari keng qo'llaniladi va ular har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Musiqa ta'limi bu yo'nalishda murakkab fanlardan biri bo'lib, mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilardan bir nechta faoliyatlarni amalga oshirish talab qilinadi. SHu bois, rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarini amalga oshirish uchun har bir darsning maqsadini aniq belgilab olish, dars komponentlarini to'g'ri joylashtirish, dars jarayonida aynan rivojlantiruvchi xususiyatlar nimalar orqali amalga oshirilishini ko'z oldiga keltirgan holda mashg'ulotni tashkil etish lozim.

Jumladan, o'rganiladigan qo'shiq, uning mualliflari, ma'lum kompozitor ijodi va faoliyati to'g'risida ma'lumotlar berish, musiqa savodxonligi bo'yicha materiallarni singdirish, musiqa tinglash faoliyatini amalga oshirish, ritmik harakatlarni bajarish, cholg'u sozlari borasida bilimlarni singdirish yaxlit jarayon bo'lib, ushbu jarayonning

har bir tarkibiy qismi bir-biri bilan mantiqiy bog‘liq tarzda tashkil etilsa, o‘quv mashg‘ulotining umumiy vazifasini a‘lo darajada amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Musiqqa darslarini sifatli tashkil etish o‘qituvchidan katta iqtidor, pedagogik mahorat va o‘z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi. Jumladan, bolalar bilan musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish birgina kuylash yoki tinglash emas, balki, musiqqa savodxonligi, cholg‘u sozlarini bilish, kompozitorlarning biografiyasi va eng sara asarlari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lib borishni talab qiladi. Buning uchun esa, o‘qituvchi avvalo o‘z ustida tinimsiz ishlash orqali ushbu ilmiy materiallar borasida tasavvurga ega bo‘lishi, shuningdek, bolalarni musiqiy faoliyatlarga qiziqтира olishi kerak. Bularsiz musiqiy faoliyatlar samarasiz bo‘lib qolishi hech gap emas.

Ayrim ustozlar bolalarni musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish uchun ularga avval engil qabul qilinadigan, so‘ngra esa murakkablashib boradigan repertuar orqali ta’sir qilish lozimligini ta’kidlashadi. Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari, ya’ni, boshqa o‘qituvchilar bolalarni musiqaga oshno qilish, ularga jiddiy, mumtoz musiqqa borasida bilim va tasavvurlarni singdirish uchun murakkab, chuqur badiiy mazmunga ega bo‘lgan, idrok etish uchun ancha bilim va tajriba talab qilinadigan repertuarni taklif qilish kerak, degan fikrni bildiradilar.

Ushbu har ikkala yo‘nalish tarafdorlarining ham fikrlarida jon bor. Agar birinchi yo‘nalish fikrini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ta’limdagi uzviylik, engildan murakkabga tamoyili amal qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari fikriga qaraydigan bo‘lsak, ular engil asar bilan bola vaqtini olmasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri murakkabroq asarlarni ularga tinglatib yoki kuylatib, musiqiy bilim va malakalarini

oshirib borish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlashlarini sezish qiyin emas.

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari ta'limdagi uzviylik tamoyilini sal o'zgartirib, nisbatan murakkab asar bilan bolalarni oshno qilish zarurligini, bu esa ularning musiqiy bilimlari tez sur'at bilan o'sib borishiga imkon yaratishini ta'kidlamoqchi bo'ladilar.

Hozirgi kunda rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari turli usul va shakllarni taklif etadi, bu borada turli pedagoglarning rang - barang fikrlarini ko'rish mumkin. SHuningdek, har bir fan xususiyatini o'zida aks ettiradigan universal metodikalar har safar ham o'zini oqlamaydi. CHunki, fanlar materiallari va ularni etkazish hamda o'zlashtirish turlicha tarzda amalga oshiriladi. Bu esa har bir fan uchun xususiy metodikalar zarurligini namoyon etadi.

Musiqqa fani maktabdagi barcha ta'lim fanlari orasida o'zining universalligi, o'tmish va zamonaviylikni uyg'un tarzda aks ettira olish imkoniyati, kuylash va tinglash faoliyatini amalga oshirishda audiovizual idrok yuzaga chiqishi bilan o'ziga xosdir.

Ushbu fanning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi omillardan yana biri, bu kuylash faoliyati o'quvchidan musiqiy tinglash, ritm va musiqiy xotirani, shuningdek, kuylash ichki kechinmalar, hissiy holat orqali bajarilishini talab etishini taqozo etadi. SHu jihati orqali musiqiy faoliyatlar barcha boshqa faoliyatlardan o'zining individualligi, inson ichki olamiga qaratilganligi, uning kechinmalari va emotsionalligi orqali amalga oshishi bilan ajralib turadi.

Musiqqa o'qitish sifatini oshirish bu zamonaviy musiqqa o'qituvchisiga ko'p darajada bog'liq, bundan tashqari, texnika vositalari, shinam musiqqa kabineti, audiovideo apparaturalar mavjudligi ham dars sifatiga ta'sir

qiladi. Lekin, ularning hech biri o'z fan sohasini butun vujudi bilan sevadigan, fidoyi o'qituvchidan ustun turmaydi. Chunki, fidokor o'qituvchi, pedagog bolalarni musiqaning sehrli olamiga olib kira oladi, ularni bu sehrli olamning sir - sinoatlari bilan tanishtirish quvvatiga egadir.

Shu boisdan ham musiqa pedagogikasiga bugungi kunda katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizdagi deyarli barcha pedagogika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida musiqa ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lib, ular mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini uchun oliy malakali pedagog kadrlar etishtirib berishga qaratilgan. O'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

Musiqiy faoliyatlar o'z tuzilishi, amalga oshirilishi va bayoni jihatidan murakkab faoliyatlar turiga kiradi. Bunda o'qituvchining pedagogik va kasbiy mahorati, o'z kasbiga nisbatan munosabati, bilimi muhim o'rin tutadi.

Jumladan, musiqaning nazariy asoslari bo'yicha materiallarni o'quvchilarga etkazish uchun quyidagicha ish tutish mumkin. Tovushlarning o'z balandligiga qarab joylashishi tovushqator, tovush esa uning pog'onasi deyiladi, degan qoidani o'rgatishda ushbu tovushlarni o'z ijrosida ko'rsatish, tovushlarning yuqori va pastlashishida tovush kuchi ham o'zgartirilishi aytib va ko'rsatilib borilishi zarur.

Musiqaviy tuzilma haqida ma'lumotlar berganda, uning to'liq tovushqatori 88 ta xilma-xil tovushlarni o'z ichiga olishini, bu tovushlar, ya'ni, eng past tovushlardan eng yuqori tovushlargacha, 16 gs dan 4176 gs tebranishga ega ekanligini aytgach, ularni cholg'uda, ya'ni fortepianoda ijro etib ko'rsatish kerak. So'ng ana shu tovushlar balandligi

inson qulogʻi qulay eshita oladigan tovushlar ekanligi tushuntirilishi lozim.

Bundan tashqari, zamonaviy darsning sifati maʼlum darajada oʻquvchilar faolligi bilan aniqlanadi. Oʻquvchilar faolligi muammosi faqatgina qiziqishlarni taʼminlaydigan dars shakli va maʼlum metodlarni qoʻllash bilan hal boʻlib qolmaydi. Koʻp narsa oʻqituvchining har bir oʻquvchiga yondashuviga ham bogʻliq, bu esa oʻqituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Buning uchun oʻqituvchi oʻz oʻquvchilarining qiziqishlari yoʻnalishlarini bilishi zarur.

Musiqqa darsini maxsus texnika vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Darsda turli cholgʻu asboblari, texnik va koʻrgazma vositalar zarur. Ular orqali oʻquvchilar turli tarkibdagi orkestrlar, ansambllar, vokal-xor asarlari, mualliflari va asarlarning turli variantlardagi ijrolari bilan tanishadilar. Ularning sifati, oʻz vaqtida tayyor boʻlishi va qoʻllanishi koʻp hollarda musiqqa darsining muvaffaqiyatini taʼminlaydi.

Umuman olganda, bugungi kunda musiqqa darslari barcha faoliyatlar turlari orqali oʻziga xos badiiy-estetik xususiyatlari bilan musiqqa oʻqituvchilarining diqqat markazida boʻlishi lozim.

SHuni nazarda tutish zarurki, biron - bir faoliyatga masalan, gʻisht tashish, moshinani surish, yuk koʻtarish, er agʻdarish yoki boshqa faoliyatlar boʻlsin, kishini majbur qilib bu ishlarni bajartirish mumkin. Biroq, badiiy yoki musiqiy faoliyatlar oʻziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, qoʻshiq kuylash, kuy chalish, rasm chizish, sheʼr oʻqishga

kishini majbur qilib, bajartirishning iloji yo'q. Biroq, bo'lganda ham, bu bajarilgan ishning sifati talab darajasida bo'lmaydi.

Bugungi kunda musiqiy faoliyatlarni izchil, sifatli bajarishda o'quvchilar bilimlarining sayozligi quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- oquvchilarning turli faoliyatlarni bir-biriga bog'liq holda tashkil etishga nisbatan ulgurmasligida;

- cholg'u sozlari va kuylash bo'yicha ma'lumotlarni aralashtirib yuborishida;

- ularda musiqaning turli faoliyatlarini izchil amalga oshirishga nisbatan bilimlarning nisbatan past darajada ekanligida.

Ushbu keltirilgan pedagogik muammolarning sabablari bizningcha, quyidagilardan iborat:

- darsda yuqorida sanab o'tilgan musiqiy faoliyatlarning asl maqsadi;

- ular asosida egallanadigan bilimlar;

- har bir faoliyatning ma'lum farqlari borasida alohida tushuncha berishda ko'pincha sustkashlikka yo'l qo'yilishi;

SHuningdek:

- milliy cholg'u sozlarini izchil qo'llash bo'yicha;

- kompozitorlar hayoti va ijodi borasida;

- musiqa savodi bo'yicha;

- ritmik harakatlar bo'yicha;
- tinglash bo'yicha hamda;
- kuylash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishda

ushbu faoliyatlarning ijobiy ahamiyati borasida alohida tushuncha berilmasligidir.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlar musiqiy faoliyatlarni to'la bajarishi va o'zlashtirishi uchun uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:


- har bir musiqiy faoliyatni o'ziga xos qirralari orqali o'quvchilarga etkazish va ularda qiziqishni shakllantirish;
- oquvchilarda turli musiqa asarlarini tinglash ehtiyojini shakllantirish;
- ozbek milliy cholg'u sozlari ijrosidagi asarlarga nisbatan o'quvchilarda tinglash qiziqishini hosil qilish;
- bolalar musiqasining ommaviy axborot vositalari, radio va televidenie orqali targ'ibotini kuchaytirish kabilardir.

Zamonaviy pedagogika bolalar bilan dars faoliyatlarini asosan ularning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish zarurligini, bolalar guruh tarzida o'qitilishini hisobga olsak, turli guruhlarda aqliy imkoniyatlari turlicha bo'lgan bolalar mavjudligini



ko'ramiz. SHu boisdan, musiqiy faoliyatlarni uyg'un tarzda o'zlashtirishda bolalarning o'ziga xos dunyosi, aqliy imkoniyatlari, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini tashkil etish zarur.

Ayniqsa, qulay va optimal metodikalarni o'qitish tizimiga joriy etish orqali ta'lim jarayonini oqilona tashkil etish mumkin. O'qituvchi-musiqachining birinchi galdagi vazifasi – o'quvchilarning produktiv faoliyatini, ya'ni, ularda ijodiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashdir. Produktiv faoliyat deganda, darsdagi barcha faoliyatlarni ma'lum izchillikda o'zlashtirish, ya'ni ma'lum faoliyatga ijodiy yondashuv tushuniladi.

Uchinchi bosqichda o'qish jarayonida biz maqom yo'nalishida ko'pgina asarlarni ijro etish va tahlil qilishga, o'rganishga erishdik. Jumladan, "SHashmaqom"ning "Buzruk" maqomidan "Saraxbori Buzruk"ni o'rganganimizda, ushbu asarning birinchi guruh sho'abalariga kirishi, "Buzruk" maqomining nasr qismiga xos ekanligi, uning 2/4 chorakda, M.M.  = 72-78 ijro sur'atida ijro etilishini bilib oldik va uni ushbu talablar asosida ijro etishga erishdik.

Mazkur o'rgangan barcha ijroviy asarlar hamda nazariy bilimlarimizni kelgusi pedagogik faoliyatimizni oqilona tashkil etishda albatta qo'llaymiz va u bizga dasturilamal bo'ladi, degan umiddamiz.

## **II BOB Musiqa ta'limida ijodiy faoliyat turlarini o'rgatish metodikasi.**

### **2.1. Umumiy ta'lim maktablarida musiqa tinglash faoliyati orqali dars samaradorligini oshirish.**

Musiqa tarbiyasining vazifasi yoshlarni har tomonlama etuk inson qilib etishtirishdir. Yoshlarni Ona Vatanga muhabbat, millat va elatlarga chuqur hurmat, baynalminallik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda san'at va adabiyotning o'rnini katta va beqiyosdir. Insonning ichki dunyosiga, axloqiy - estetik kechinmalar uyg'ota olish, yoshlarning estetik jihatdan shakllanishida musiqa oqituvchilari musiqaning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, xilma-xil amaliy hamda didaktik usullarni muvaffaqiyatli qo'llay olishlari shart. Umuman olganda, umumta'lim maktablarida qo'shiq o'rgatish oldindan eshittirib so'ng aytirish qoidalariga asoslanadi.

Musiqqa kishilar hayotini, ularning his tuygʻularini va orzu istaklarini oʻziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining ichki hissiyotlariga faol tasir etadi. SHuning uchun ularning maʼnaviy, gʻoyaviy va axloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirib olijanob fazilatlarini kamol toptirishda taʼsirchan vosita hisoblanadi.

Musiqqa tarbiyasi bolalarga xos musiqqa tinglash, qoʻshiqlarni yodlash, musiqqa bilan turli harakatlarni bajarish, cholgʻu asboblarini chalish, musiqqa va musiqachilar toʻgʻrisidagi kitoblarni oʻqish, teatr, konsertlarga borish singari musiqaviy faoliyatning turli xil turlarini oʻrganishdan iborat.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining quvnoq musiqalarini zavq-shavq bilan tinglashi, musiqqa asboblarining qiziqib chalishi qoʻshiq va raqslarini berilib ijro etishi, ularda musiqqa qiziqishini tarbiyalash boʻyicha amalga oshiriladigan ishlarning zaminidir.

Musiqani faol ravishda tinglash bolalarda ijrochilik malakalarini shakllantiradi. Musiqqa tinglagandan keyingi fikr almashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlib, oʻqituvchi bolalar oʻrtasida bir-birini aniqlash ruhini va oʻzaro ishonchini vujudga keltiradi, hamda mustahkamlaydi. Musiqqa oʻqituvchisi umumiy taʼlim maktablarining har bir sinfida oʻrgatish uchun qilinayotgan qoʻshiq - ashula va materiallarini puxta oʻylab chiqishi kerak. Repertuarga kiritilayotgan qoʻshiqlar gʻoyaviy badiiy qiymatga qarab tanlanmoqʻi, oʻquvchi bolalarga tushunarli va mavzu jihatdan xilma-xil boʻlmogʻi lozim. Bolalarni oʻziga qoʻshiq aytirish, ularda musiqqa moyillikning tarkib topishi amaliy va taʼsirchan vositadir.

Oʻquvchilarga oʻzbek xalq qoʻshiqlari qatorida rus, qozoq, ukrain, tojik va boshqa xalq qoʻshiqlari ham oʻrgatilib boriladi. Bu

qo‘shiqlarning hammasi bolalarni o‘z vataniga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Qahramonlar bilan faxrlantiradi, bolalar o‘z xalq qo‘shiqlarini qadrlab o‘rganadilar.

Bastakor musiqachi san‘at arboblari hayoti va ijodlarini o‘rganish turli mamlakat xalqlari musiqa asarlari bilan tanishishi bolalar uchun foydalidir. Musiqa to‘g‘risidagi kitoblar bolalarda musiqaviy didni tarbiyalaydi.

estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa tarbiyasi badiiy tarbiyaning yorqin namunasidir. O‘quvchilar har bir musiqa asarini diqqat bilan e‘tibor berib kuylashi va tinglashi ulardagi musiqiy tovushlar vositasida gavdalantirilgan. Badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi hamda ularga to‘g‘ri badiiy baho berish zarur. Bunda musiqa san‘atining mohiyatini, uning tur va jaranglarini o‘quvchilarga tushuntirib berishga katta yordam beradi. Badiiy tarbiya, shu jumladan, musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Maktabda musiqa o‘qituvchisining eng asosiy vazifasi bolalarni musiqa san‘atiga qiziqtirish, bolalarning musiqaviy iste‘dodini rivojlantirishdan iboratdir. O‘quvchilar faqat musiqa amaliyoti jarayonida, musiqa materiallari asosida va ta‘lim uslubiga asoslangan holda musiqa savodini bilishlari lozim. Mana shu sabablarga ko‘ra eng ommaviy, eng tushunarli va chuqur emotsional ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan xor qo‘shiqlari maktabda bolalar musiqasi tarbiyasining asosi hisoblanadi.

O‘quvchilar musiqa darsida qo‘shiq o‘rganishi yorqin musiqa savodini egallash bilan cheklanib qolmasdan, gramplastinkaga yozish hamda o‘qituvchi ijrosida musiqa asarlarini tinglaydilar.

Musiqqa asarlarini chuqur egallash uchun musiqani eshitish malakasi va musiqqa bilimi bo'lishi talab qilinadi. Bolalarga mo'ljallab eshittiriladigan musiqqa, ularning tushunchasi va ichki dunyosiga yaqin bo'lishi lozim. O'quvchilar quvnoq va qayg'uli, tantanavor, ko'tarinki ruhdagi va hajvii musiqalarni juda qiziqib eshitadilar.

Musiqqa asarlari yilma- yil forma va mazmun jihatdan murakkablashib boradi. Bolalar birinchi va ikkinchi sinfda asosan bolalar uchun yozilgan musiqqa asarlarini eshitadilar va o'qituvchi yordamida ijro etadilar. Uchinchi sinfdan boshlab maktab dasturiga xalq qo'shiqlari, mumtoz bastakorlarning kichik asarlari va keng tarqalgan ommavii qo'shiqlar kiritiladi. O'quvchilarning yoshi va qobiliyatini hisobga olgan holda eshittirilishi lozim bo'lgan musiqqa asarlarini tinglash mumkin.

O'quvchilarda musiqqa havas uyg'otish uchun ularning tanlanayotgan musiqqa asarlarini sevishi katta ahamiyatga egadir. SHuning uchun yaxshi ijro etilgan asarlar ularda chuqur taassurot qoldiradi, shu musiqqa asariga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, sinfda o'quvchi yoki musiqqa havas qo'ygan yosh ijrochi, ya'ni o'quvchilar tomonidan ijro etiladigan asarlar hayajon bilan qabul qilinadi. Musiqqa darslari maxsus jihozlangan sinflarda o'tkazilishi yuqori natija beradi. Bunday sinflarda birinchi navbatda cholg'u asboblari pianino, rubob, doira, akkordion, afg'on rubobi, musiqqa savodiga oid jadvallar, bastakorlarning portretlari, nota yo'li chizilgan doska, magnitofon, proigrevatel plastinkalar bo'lishi kerak. Bunday sinf bo'lmaganda darslar oddii sinflarga o'tkaziladi.

Azaldan sharq, jumladan, o'zbek musiqqa ta'lim tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslubiyatlari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Davlat ta'lim standartlari

ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari (sozanda- xonandalar), katta ashulachilarning elementar xor asoslarini o'rgatishni me'yorlashtiradi.

Musiqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. SHu bois musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan, madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi.

Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'zlashtirishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari, musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushash va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Musiqa o'qituvchisi yuqorida bayon etilgan fikr mulohazalarni hisobga olib, 1-sinfda musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda, albatta e'tibor berishi talab etiladi.

Maktabda musiqa tarbiyasi bo'yicha umumiy vazifalar ikkinchi sinf mashg'ulotlarida davom ettiriladi musiqa san'atiga muhabbat va qiziqishni shakllantirishni ta'limining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish kabi vazifalar hal etilishi nazarda tutiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun esa albatta, ikkinchi sinf o'quvchisining umumiy tavsifini (xarakteristikasi) bilishi lozim. Garchand 1 va 2 sinf bolalari ko'pgina umumiy xususiyatlar ( o'yin shakli orqali o'quv

materialini yaxshi o'zlashtirish, yorqin xayol, muayyan xotiraga ) ega bo'lsalarda ular orasida ma'lum farqlar ham bor. Eng avvalo, ikkinchi sinf o'quvchisi endi "Tajribali" o'quvchi, u maktab kun tartibiga o'rgangan, dars talablarni tushungan, diqqati ancha holatga o'tgan birinchi sinf o'quvchisiga nisbatan abstrakt tafakkur etish ya'ni idrok etgan holat va faktlarni taxmin etish hamda umumlashtirish qobiliyati ancha o'sgan darajada bo'ladi.

1-3 sinflarda bolalar o'quv faolyatini istagan turi qo'shiq kuylash, raqsga tushish, musiqa asboblarda chalish va boshqalarga tayyor bo'lib, qiziquvchanlik va moyillik bildiradigan bo'lsalar 4-sinfga kelib esa bolalarning qiziqishi buyicha turlanish.

Xuddi shu paytlarda o'qituvchilar, o'quvchilar qobiliyati darajasiga etarli baho berishda adashib qolish hollari sodir qilishadi. Zero shaxsning ko'pincha qobiliyatlari, jumladan, musiqiy qobiliyatlari ham yoshning turli bosqichlarida rivojlanishi mumkin va tabiiy xoldir. Muhimi o'qituvchi 4 –sinf o'quvchilarini sinf - guruh hayotiga ancha o'rganib borayotganb mustaqil rivojlanish ijtimoiy hayotga qiziqish, faolligi oshib borayotgan o'quvchi shaxsi sifatida qarashi lozim bo'ladi.

Respublika mustaqillikka erishgach, musiqa ta'lim tizimini milliy asosda qayta tuzish ehtiyoji tuzildi. SHunisi muhimki, O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim tarbiyasini yangi konsepsiyasi qabul qilinib unda boshlangich ta'lim tizimiga alohida e'tibor berildi. Ayniqsa, musiqa ta'limi amaliyotida boshlangich sinflarda musiqani o'ziga xos hususiyatlari jumladan :

- Bolalar musiqiy tayyorgarligi darajasining har xilligi ;
- Nutq talaffuzining yaxshi rivojlanmaganligi ;

-Notani yozish, uni tushunish malakasini xoli to'la shakllanmaganligi ;

-Bolalarni ko'pchiligida musiqani idrok etish, mustaqil qo'shiq kuylay olish malakalarning to'liq rivojlanmaganligi ;

-O'quvchilar diqqat - e'tiborini barqaror emasligi ;

-kichik yoshdagi o'quvchilar ovoz apparatlarining nozikligi kabilar sabogi mazmuning belgilashda alohida hisobga olingandir.

Musiqqa tinglash faoliyatini tashkil qilish usullari xilma-xildir. Bunda shu narsa muhimki, undan estetik zavqlana olish shakllarini o'zlashtirish etakchi faoliyat kasb etadi.

Kishida musiqqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojlana boshlaydi. Bogchada amalga oshiriladigan musiqqa tinglash uning poydevoridir. Zotan bola musiqqa mashg'ulotlarini barcha elementlari jarayonida ham musiqqa tinglab uni idrok etadi. Ammo mashg'ulotning musiqqa tinglash qismi oldida o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi.

Avvalo, shuni eslatish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra tinglash imkoniyati ancha keng bo'ladi. Masalan, orkestr, xor, yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin xolos. SHuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqqa tinglashga alohida e'tibor bermoqdalar. CHunki kishi musiqqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqqa tinglash malaka va ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Musiqqa tinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi.

Mashg'ulotning musiqqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi. Bolalarning o'z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqqa namunalari bilan tanishtirib borish, musiqqa haqida



boshlang'ich ma'lumotlar berish, o'rganiladigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglangan asarga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rganish. Musiqa san'at sifatida kishining his - tuyg'ularini ifodalash bilan birga hayot, voqeylik va davr aksidir. SHu boisdan yangi dasturlarning bosh mezonini ham "Musiqa va hayot"dir.

O'quvchilarning hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asarining zamirida ma'lum voqelik, his- tuyg'u va fikrlar aks ettirilishi haqida tushuncha beriladi.

Bu faqatgina dars jarayonida turli musiqa faoliyatlarini bajarishda asar va uning obrazlarini idrok etish bilan amalga oshadi. Zotan biz darsda qaysi musiqa faoliyatini olmaylik, u avval musiqa yangrashini idrok etish va uning obrazi hamda xarakterini fahmlagandan so'ng ijobiy tarzda musiqani eshitib zavqlanish, ashula aytish, musiqa savodiga doir xususiyatlarni anglab olish, raqsga tushish va musiqa ostida turli xarakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblarida chalib musiqaga ritmik jo'r bo'lish uchun belgilangan musiqa asarlarini ayni holda eshitib idrok etib borish bilan belgilangan faoliyatlarni bajarish mumkin.

Mazkur ishlar jarayonida bolalarda musiqa haqida bilim va tushunchalar, malaka va ko'nikmalar hamda umumlashma badiiy taassurotlar va tajribalar hosil bo'lib boradi. Tahlil davomida musiqa tinglashga doir o'rganiladigan yangi terminlar (ijro sur'ati, xarakteri, ifoda vositalari, ijrochilar, cholg'u asboblari turlari, kompozitor va boshqalar) o'rganilib boriladi. O'rganilgan asar yil davomida vaqt-vaqti bilan tinglab boriladi, musiqa tinglash faoliyatida o'quvchilarning kuyning tuzilishi, idrok etilishini ta'minlash uchun

o'qituvchining suhbat, hikoya metodlaridan foydalanishi samarali yordam beradi.

Demak, musiqa tinglash faoliyatini tashkil etish o'qituvchining kasbiy mahorati, nutq madaniyati bilan bevosita bog'liq. SHu nuqtai nazardan ham qaralganda musiqa tinglash faoliyatini tashkil etishni hamisha takomillashtirib borish o'qituvchining vazifalaridan biridir.

SHunday qilib, maktabda musiqa tinglash faoliyatini tashkil etish muhim pedagogik muammolardan biridir, uni nazariy asoslash va amaliy tashkil etish yo'llari va usuli ko'pgina musiqachi pedagog olimlar, metodistlar, maktablarning ilg'or o'qituvchilari tomonidan asoslanib ko'rsatib berilgan. Biroq, hozirgi kunda maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi amaliyoti tahlili hali bu sohada juda ko'p ishlashni talab etmoqda. Ishimizda ta'kidlaganimizdek, yangi davlat ta'lim standartlari qabul qilinishi yangi dastur, darsliklar, metodik tavsiyalar, qo'llanmalar ushbu muammoni hal etishda o'ziga xos o'rin egallaydi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish joizki maktab musiqa tinglash faoliyatini tashkil etishda musiqa madaniyati fani o'qituvchisining pedagogik, psixologik, nazariy va amaliy metodik jihatdan tayyorgarlik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Biz pedagogik amaliyotlar davrida mazkur masalani amaliyotdagi axvoli bilan yaqindan tanishganimizda shu narsaning guvohi bo'ldikki, musiqa o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligi ijrochilik mahoratidan ancha past, ayrim o'qituvchilar musiqa tinglash faoliyatini tashkil qilishning metodik jihatdan to'g'ri amalga oshira olishmaydi. Ayniqsa musiqa asari haqida kirish so'zi, asar mazmuni xususida taassurotlarni aniqlab olib, o'z mulohazalari bilan to'ldirish kabi bosqichlar to'liq o'tkazilmaydi. Amaliyotdagi bunday holat

albatta, o'quvchilar musiqa ta'lim- tarbiyasini mukammal amalga oshirishda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday kamchilikni tuzatish o'qituvchining tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, mukammal tayyorgarligini talab etadi. Zero, musiqa ta'lim tarbiyasining ya'ni, konsepsiyasida ham bo'lajak musiqa bakalavrlarida shakllantirilishi lozim bo'lgan rasmiy sifatlarga to'xtalib, "Hozirgi zamon musiqa o'qituvchisi yuksak madaniyatli, o'z kasbiga cheksiz sadoqatli, ilg'or pedagogik tafakkur sohibi bo'lmog'i, o'zini uzluksiz kasbiy mahoratini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi ma'lumligi qayd etilgan.

Bolalar oilada radio, televedeney orqali, shuningdek teatr va boshqa jamoatchilik joylarida musiqa bilan doimo oshno bo'ladilar. Zero, bolalarning hafta davomida tinglaydigan musiqa ko'lami haftada bir soatlik darsdan bir necha baravar ko'p ekanligi o'z-o'zidan ma'lum. Ammo ular tinglaydigan musiqa asarlarining hammasi ham bolalar yoshiga mos emasligi va ular musiqani badiiy-g'oyaviy jihatdan hamma vaqt ham maqsadga muvofiq idrok etolmasligini hisobga olishimiz lozim. SHuning uchun ham musiqa darslari bolalarning hayotiy musiqaviy faoliyatida boshqaruvchi va pedagogik maqsadga muvofiq yo'naltiruvchi, ayniqsa, badiiy ta'lim beruvchi vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Musiqa tinglash badiiy ta'limning muhim vositalaridan biridir. U darsning barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshadi. Demak, musiqa tinglash orqali bolalarda musiqani, uning obrazlari vositasida hayotni, borliqni anglash va bilish qobiliyati rivojlanib boradi. Bunda musiqa tili, ifoda vositalari, janr va formalarini o'rganish muhimdirki, u musiqani badiiy g'oyaviy jihatdan idrok etishiga va badiiy estetik zavqlanishga imkon beradi. Bu darsning

barcha musiqa faoliyatlari, ayniqsa, musiqa tinglash, xorda kuylash va nota yordamida kuylash jarayonida amalga oshib boradi. Musiqa tinglash faoliyatidan xorda qo'shiq o'rganish va kuylash jarayonida ham keng foydalaniladi. Ayniqsa, tajribali bolalar xor jamoalari ijro etgan gramplastinkalar yoki magnit lentalarini, kompyuterda lazerni disk orqali eshittirish, sinfda qo'shiq aytishning badiiy saviyasini ko'tarishga yordam beradi. Musiqaning barcha janrlarini ko'proq tinglab badiiy idrok etish orqali kishida musiqaviy-badiiy did va musiqa madaniyatini har tomonlama shakllantirish mumkin. Bunda, bolalarda onglilikni rivojlantirish va u orqali musiqani badiiy g'oyasini chuqur anglashga erishish zarur.

Zeroki, dasturda kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan qo'shiq va musiqalar zamirida baxtli bolalik, insonparvarlik tarannum etiladi. Ularda bepoyon Vatanimizga, xalqimizga muhabbat va sadoqat, mehnat va kasbga qiziqish, tabiatni sevish va uni ardoqlab asrash, do'stlik jamoaviy hissiyot kabi yorqin g'oyalar va obrazli mazmunlar yotadi.

Qo'shiq aytishda bolalarni musiqa tinglash qoidalarini (sinfda jimlik barqaror etish, boshqalarga halaqit bermasdan musiqani diqqat-e'tibor bilan tinglash)ga ham o'rgatib borish lozim. Bu ularda onglilik va faollikni kuchaytiradi va musiqa madaniyatini tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir musiqa asari zamirida ma'lum voqeelik, his-tuyg'u fikrlar yotishi haqida o'quvchilarga, ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda tushuncha berib borish lozim. Bu asta-sekin musiqaviy taassurotlar va ma'lum tajribalar zamirida vujudga keladi.

“Musiqani o‘rganish jarayonida”,- deb yozadi D.B.Kabalevskiy,- bolalar birinchi darsdaniq unda hayot aks ettirilganligini, u orqali hayotni o‘rganishlarini osonlikcha his etadilar va tushunadilar.” Atoqli olim professor N.Betlugina 6 yoshli bolalarda musiqa idrokining rivojlanish shart-sharoitlarini quyidagicha belgilaydi: birinchidan, bolalarni musiqada ifoda etiladigan his-tuyg‘ular, fikr-g‘oyalarni idrok etishga o‘rgatish lozim. Bu esa ularda samimiylik va go‘zallikka nisbatan intiluvchanlik ta’sirchanlikni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, san’atni-hayotni aniq aks ettirish formasi sifatida tushunishga o‘rgatish, musiqa obrazlarini hayot bilan taqqoslash va bog‘lashga imkon beradi.

Uchinchidan, musiqa tilini o‘rganishdan iboratdir, musiqaning ifoda vositalari-kuy, ritm, dinamika, temp (ijro sur’ati) nyanslar vositasida musiqaning jonli tilini bolalar asta-sekin tushunib boradilar va asarda tasvirlangan hayajonli yoki osoyishta bayoni, musiqaning bir-biriga o‘xshashligini tuzulishini, undagi mavjud savol-javoblarni anglab idrok etadilar.

To‘rtinchidan, bolalarning musiqa idroki ko‘nikmasi bir-necha bosqich davomida tarkib topadi. Eng avvalo, musiqa asarini butunlikda idrok etish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Asarni qayta-qayta tinglash jarayonida esa uning xarakterli alomatlari va ifodali xususiyatlari bolalar diqqatini jalb etadi. SHundan so‘ng hosil bo‘lgan musiqaviy tajribalar asosida asarni yana butunlikda tinglaganda u badiiy -g‘oyaviy jihatdan ancha mukammal idrok etiladi. Darsda tinglanadigan asar musiqaviy tuzulishi, badiiy –g‘oyaviy mazmuni jixatidan chorak mavzusidan kelib chiqishi va asarning yangrash vaqti bir, bir yarim minutdan oshmasligi lozim, tinglashda asarni quyidagi etablarda o‘rganish mumkin:

1. Asar tinglashda bolalar diqqatini jamlash va asar haqida o'quvchining kirish so'zi.
2. O'qituvchi ijrosida yoki magnet lentasida, asarni tinglash.
3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqaviy va badiiy –g'oyaviy jihatdan oddiy taxlil etish.
4. Asarni bir butunlikda qayta tinglash, so'ng asar haqida bolalarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish.

Mazkur ishlar jarayonida bolalarda musiqa haqida bilim va tushunchilar, malaka va ko'nikmalar hamda umumlashma badiiy taassurotlar va tajribalar hosil bo'lib boradi. Bunda dars jarayonida bajariladigan barcha musiqa faoliyatlari, ayniqsa, musiqa tinglash sabog'i natijalari chorak mavzusini yoritib borishiga qaratilishi zarur.

Jumladan, o'rganiladigan qo'shiq va kuylarga nisbatan bolalarda qiziqish va badiiy ishtiyoq uyg'otish bilan biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar mavzui; kompozitor, ijrochi va tinglovchi haqida tushuncha berish bilan esa musiqani kim yaratadi, kim ijro etadi va kimlar tinglaydi, mavzularning mohiyati tushuntirib boriladi.

SHu bilan birga, musiqaning tuzilishiga doir olinadigan bilimlar ham musiqa savodiga oid mavzularni o'zlashtirishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Musiqa mazmunini va xususiyatlarini boshqa fanlar –o'qish (qo'shiq matnlari), matematika (nota va pauzalar bo'linishlari, o'lchov sanoqlari), jismoniy tarbiya (marsh musiqalariga sanoq bilan qadam tashlash, turli harakatlar bajarish), tasviriy san'at (musiqa obrazlariga xos suratlar) bilan bevosita aloqada o'rganish nihoyatda muhimdir. Ayrim ijodkor o'qituvchilarning syujetli va yorqin obrazli asarlarni o'quvchilarga eshittirib, o'rgatib, shu obrazlar suratini chizishni uyga vazifa qilib berishlari yaxshi natijalar bermoqda.

## **2.2. Musiqa ta'limida ijodiy faoliyatga o'rgatishni takomillashtirishning shart-sharoitlari va usullari**

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish musiqa darsi oldida turgan muhim masalalardan biridir. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylash – musiqaviy qobiliyatning rivojlanishidi, kuylash malakalarining shakllantirishda, shu jumladan, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdin, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdan, balki eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi, nafas yo'llarini rivojlantiradi.

Yaxshi va ravon tarbilangan kuylash malakalari, tarbiya kelajakda ijobiy samara keltirib, rang – barang qo'shiqlarni ifodali kuylash imkonini beradi. Albatta bu jarayon oson kechmay, o'qituvchidan qatsr muammo va vazifalarni to'laqonlilik bilan hal etishni talab etadi. Ma'lum qo'shiqni kuylash davomida o'qituvchi quyidagi vazifalarni hal etish yo'llarini olmog'i kerak.

qo'shiq to'g'risida boshlang'ich tushunchalar berish orqali o'qituvchilarda hissiy taassurotlarini shakllantirish;

Ijro etish rejasini to'zishga qaratilgan musiqiy yo'nalishni tahlil qilish;

Asarni kichik bo'laklarga bo'lib ishlash hamda kuylash malakalarini shakllantirish yo'llarini rejalashtirish;

Ayrim jumalarni puxta o'rganish maqsadida takrorlash hamda ifodali kuylashga zamin yaratadigan mashqlardan foydalanish;

Asarning badiiy harakterini tinglovchiga yetkazib kuylash o'qituvchi bu vazifalarni bajarishga kirishar ekan eng avvalo tanlangan bu qo'shiqning yaratilishi haqida o'qituvchilarga qisqacha ma'lumot berib ma'lum cholg'u asbobi jo'rligida ifodali kuylab beradi;

Musiqiy tovushlarning baland – pastlik yo'nalishi hamda ijro xususiyatlarining bolalar yoshiga mos yoki mos emasligi to'g'risida ular bilan

savol - javob qilish orqali qisqacha tahlil o'tkazadi. Qo'shiqning kichik bo'laklariga qayta ishlash, ular orasidagi bolalar qayta o'ylab aniq idrok etganlaridan so'ng qo'shiqni to'liqligicha kuylash mumkin: bolalar qo'shiqni to'lig'icha ijro etayotgan bir birini eshitishga harakat qila boshlaydilar. Bu holatni bo'lib navbat bilan qo'shiqni quylatadi. U yerda ham kuylovchilar, ham tinglovchilar hosil bo'ladi. Savol – javob tariqasida har qaysi g'uruhning qay darajada kuylanganligi aniqlanadi va o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bu bilan asarning badiiy harakterini tinglovchiga yetkazib kuylash vazifasi amalga oshiriladi.

Bu vazifalarning o'qituvchilarni bilim doirasini ya'ni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan turib, amalga oshirib bo'lmaydi. Kuylash malakalarining shakllanishi har bir bolaning o'z xususiyati va qo'shiqchilik qobiliyatiga ham bog'liqdir. Chunki bolaning maktabgacha musiqaga, qo'shiq aytishga bo'lgan munosabati, maktabda unlagi kuylash malakalarining ta'kidlanishi sifatiga ta'sir qiladi.

Ma'lum bir qo'shiqni kuylash jarayonining o'z talablari to'g'ri va puxta bajarilgandan so'ng asarning musiqiy yo'nalishi orqali o'quvchilarda kuylash malakasining shakllanib borishga katta e'tibor beriladi. Buning uchun esa quyidagi bosqichlar orqali maqsadga erishish rejalashtiriladi:

Oddiy va elementlar kuylashni o'rganishga erishish.

Oddiylikdan murakkablikka ko'chadigan mashqlar o'stida ishlash.

Hosil bo'lgan kuylash mahoratidan o'rinli foydalanish.

Birinchi bosqichdan boshlab o'qituvchilarga qo'shiq kuylash yo'llari o'rganilib boriladi. Albatta bunda tovush imkoniyatlari (diapazonni) hisobga olinadi va toza sof hamda ifodali kuylalariga harakat qilinadi. Yumshoq kuylash va to'g'ri talaffo'z qilish va erkin quylashga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun esa og'iz va jag'lar harakatini to'g'ri harakatga keltirish ta'minlanib boriladi. O'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslik maqsadida esa, kuylash faoliyatini musiqa tinglash faoliyati bilan tez – tez lmashtirib turish nazardan chetda qolmaslik kerak. Birinchi bosqichning amalga oshirishda musiqa



o'qituvchisining ushbu malakalarini bir – biriga bog'liqligini ta'minlashga erishuvchi muhit hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichning maqsadi o'qituvchilarning yorqinlikni puxta ta'minlash va hosil qilish, ovoz tembridagi yorqinlikni puxta ta'minlash va tovushlarda hamohanglikni xshilashdir. Shu maqsadda turli mashq yohud gammalardan foydalaniladi. Shuningdek, nafasni to'g'ri taqsim etish va to'la shakllantirish yo'llari o'stida ish olib boriladi.

Demak, har ikki bosqich ham o'qituvchilarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirilib borishga qaratilgan bo'lib, jarangdorlikning sof va ifodali bo'lishi, ovoz hosil qilish usulining mustahkamlanishi, tovush tembri sifatining samarali oshishi yohud diapazonning sezilarli darajada kengayishi, talaffo'zlarining to'g'ri va aniq bo'lishiga chorlaydi.

Har ikkala bosqichda shakllangan kuylash malakalari uchinchi bosqichda yanada mustahkamlanadi. Chunki bu bosqich davrida o'quvchilar puxta va chuqur musiqiy his – tuyg'u, tushunchaga ega bo'ladilar, hamda qo'shiqning to'g'ri kuylash yo'llarini ancha yaxshi o'zlashtirilgan bo'ladilar. Shuning uchun ham bu davrga kelib, tovushlarning katta sakrashlarini o'z ichiga olgan ayrim mashqlardan bevosita foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning natijasi shunga chorlaydiki, o'quvchilarning o'zaro kuylash malakalariga ta'sir qiladi. Nafas olish me'yorining tartibi bo'lishida o'quvchining kuchlm nazorati kuylashda ifodalilikni, urg'u va talaffo'zlarni ifodali bo'lishiga olib keladi.

Kuylash malakalarini shakllantirish va rivojlatnirib borishda qo'shiq va qisqa kuylash mashqlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mashqlarni tez – tez takrorlab turish va o'quvchilarni guruhga bo'lib kuylashni joriy etish foydalidir. Musiqa asarini esa, kichik bo'laklarga bo'lib o'rganish yaxshi samara beradi. Buning uchun qo'shiqning umumiy har akteridan o'zoqlashmaslik, jumlar orasidagi o'zaro bog'lanish va izchillikning to'laligicha saqlash kerak. O'quvchilar qo'shiqni ijro etayotganlarida o'zaro bir – birlarini eshitib quylashlariga alohida e'tibor berish, ayrim hollarda esa

yakkaxonlik hamda ko'pchilik ijrosini qanday tinglash kerak ekanligi to'g'risida tushuncha berib borish nazardan chetda qolmasligi kerak.

Ma'lumki, o'qituvchilar biror bir musiqa asarni erkin tahlil qila olmaydilar, yohud dastlabki mashqlarda qo'lga kiritilgan natijalarni keyingi mashqlarda ishlatishga qiynaladilar. Kuylash malakalari orasidagi bog'liqlikni esa yaxshi sezmaydilar. Bunday hollarda bevosita darsning samarali kechishida, ma'lum bir asarni sifatli kuylashda ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli ham o'quvchilar orasida «qayta kuylash mashqlari» usulida qo'llash darkor. Bu usulning 2 sharti mavjud bo'lib, har ikkalasi bir – biri bilan o'zviy aloqadorlikka ega.

Birinchidan, o'quvchi kuylayotganda aynan qilish va qanday ijobiy natijaga erishishi mumkin bo'lgan puxta va aniq bilimga ega bo'lishlik bo'lsa, ikkinchidan, nimaga erishganini har bir mashqning qanday natija berganini, shuningdek, qanday xatolarga yo'l qo'yilganligini bilishlikdir. Shu yo'sinda qo'llanilayotgan keyingi mashqlarda esa bevosita ushbu xatolarni bartaraf etish, tuzatish, sof va tiniq kuylashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Birinchi shartning puxta va to'g'ri bajarilishi uchun o'qituvchi savodxonligi jarayonini kuylash jarayoniga bog'liqligi hamda har ikkala faoliyatning mantiqan o'zaro bir – biriga mos bo'lishiga e'tiborni qaratmog'imiz lozim. Ikkinchi shartning puxta bajarilishi esa qayta kuylash mashqning ma'lum maqsadga qaratilganligiga bog'liqdir. Ko'rinib turibdiki, har ikkala shartning yo'nalishi yuqorida ta'kidlab o'tilgan 3 bosqich maqsadi bilan uzviy aloqador bo'lib qoladi. Kuylash malakalarini shakllantirishdagi mana shu 3 bosqichni samarali bajarish o'qituvchidan yana quyidagilarga e'tibor berishni talab etadi;

A) Har bir o'quvchining individual (alohida) xususiyati va imkoniyatini hisobga olish,

B) o'quvchilarning ohangdoshlikni his etishga erishish,

V) o'quvchilarga tanish bo'lgan milliy cholg'u asboblardan keng foydalanish,

G) dars jarayonida ko'nikmagan o'quvchilarni o'z vaqtida musiqa dastlabki 2-3 mashg'ulotlardan boshlab bolalar qobiliyatini hisobga olgan holda ularni 3 g'uruhga bo'lib o'tkaziladi. Kichik mashqlar o'stida ishlayotganda bolalarni individual musiqiy qobiliyati va imkoniyatlari o'quvchi tomonidan aniqlanib, o'rganilib boriladi. Xususan bolalarning musiqaga munosabati, ovoz pardasining imkoniyatlari, nafas olish yo'llari va kuylash ifodasi o'rganiladi. Bu xususiyatlarni to'g'ri shakllanishiga bolalarni uch guruhga bo'lib o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni ohangdoshlikni his etish qobiliyatini shakllantirishda o'qituvchi avvalo ularning maktabgacha musiqaviy tarbiyasini o'rganish kerak. Bolalarga tanish bo'lgan qo'shiqlarni amalga oshirish ohangdoshlikni his etishda samarali natija beradi.

Kuylash malakalarining ijobiy shakllanishida milliy cholg'u asboblarning bevosita muhim ahamiyati bor. Lekin Ovrupa cholg'u asboblarning ham bu jarayonda muhim o'zni borligini rad etib bo'lmaydi. Jumhuriyatimizning hamma umumta'lim maktablarida ham turli cholg'u asboblari mavjud emas. Ko'pgina maktablar musiqa darslarida doira, nog'ora, g'ijjak, tanbur, nay kabi o'zbek milliy cholg'u asboblari kam foydalaniladi. Agar bolalar milliy cholg'ular mohiyatini tubdan bilishsa, o'rganishsa ularda milliy san'atimiz va madaniyatimizning o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada kuchayadi. Demak, ushbu cholg'ulardan ko'proq foydalanilsa kuylash malakalarini shakllanish jarayonining samarasi ijobiy bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qo'shiq kuylashga o'rgatish umumta'lim maktabining amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muhit masalasidir. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylash usuli musiqaviy qobiliyatning rivojlanishida vokal – xor malakalarini shakllantirishda, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdan, balki eshitish qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Nafas yo'llarini rivojlantiradi. Xullas qo'shiq tinglash har bir bolaning o'ziga jalb qiluvchi har tomonlama foydali va samarali natija beruvchi jarayondir. Bolalarda kuylash malakalari bir vaqtning o'zida va bir –biriga bog'liq holda shakllanishi maktab

o'quvchilariga musiqa fanlari o'qitishdagi ba'zi uslublarini qayta ko'rish maqsadga muvofiq ekanligini dalolat ko'pincha musiqa o'qituvchilari kuylash malakalari hosil bo'lish jarayonini tarbiyalashda bu malakalarni bir – biriga chambarchas bog'liqligini hisobga olmaydilar, hamda bu malakalarning bir sistemada shakllanishiga e'tibor bermaydilar. Birorta malaka bir –biridan ajratilgan holda rivojlanmaydi.

Bolalarga qo'shiq kuylashni o'rganish jarayonida o'qituvchi o'z bilimini ular ongiga yetkazish uchun shunday qulay vaziyat vujudga keladi, bunda eng muhimi o'qituvchi bolalarning musiqani to'g'ri idrok qilishga tayyorlashi yuksak darajada bo'lishi kerak. Bu faoliyatning amalga oshirilishida xotari, diqqat va emotsional ko'tarinki ruh yordamga keladi. Pedagogika va psixologiya fanlari shuni ta'kidlaydiki, ijodiyotni rivojlantirishning barcha turlariga bu narsalar bevosita aloqadordir, qolaversa butun o'qish jarayonida bo'larsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Musiqa darslarida xotirani kuchaytirish va rivojlantirishning asosiy uslublaridan biri o'qituvchilarning kichik va qisqa quylash mashqlarini tez – tez takrorlashi va keyinchalik ushbu mashqlarni kengaytirib va kuchaytirib borishidadir. Kulash malakalarining shakllantirishida musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan talablardan bir bolalarni ushbu mashqlarga qiziqtirish, bolalarning musiqa olamiga shunday olib kirish kerakki bunda ular o'qituvchining har doimgi talablaridan zerikmasinlar, agar o'qituvchi o'z xotirasini fahmlay ola bilsa, kuylash malakalarining shakllanishi jarayonining samaradorligi osha boshlaydi. Bu natijaga erishish uchun o'qituvchidan jiddiy mas'uliyat talab qilinadi. Bolalar tetik ko'tarinki ruh kayfiyatida bo'lsalar, ularning faoliyat qobiliyati faollashadi. Shu bilan bolaning musiqani idrok qilishida ham chuqur, emotsional his – tuyg'u holati paydo bo'ladi. Bu holat kuylash jarayonida ijobiy natijalar hosil bo'lishiga olib keladi.

Ma'lum bir qo'shiqni kuylash oldidan va kuylash davomida bir qancha vazifalarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Qo'shiq haqida dastlabki emotsional taassurotlar hosil qilish: ijro etish rejasini to'zish maqsadida asarning musiqaviy tilini taxlil qilish.

Qo‘shiqni kichik bo‘laklarga bo‘lib, alohida qayta ishlash.

Asarni bir necha marta qayta ishlash.

Asarning musiqaviy badiiy obrazini kuylovchiga yetkazib kuylash

Bu vazifalarni amalga oshirishda o‘qituvchi eng avvalo tanlangan qo‘shiqning yaratilishi haqida ma’lumot berishi va ushbu qo‘shiqni ma’lum cholg‘u asbobi jo‘rligida ifodali kuylab berishi kerak. Endi asarni bolalarga qaysi uslubda o‘rgatish kerakligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi qo‘shiqdagi musiqaviy tovushlarning baland – pastligi musiqa diapazonining bolalar yoshiga mosligi haqida bolalar bilan savol – javob tariqasida qisqacha tahlil o‘tkazadi. Qo‘shiqni kichik bo‘laklarga qayta ishlash ular orasidagi o‘zviylikni saqlagan holda oshirishi kerak.

Kichik bo‘laklarni bolalar qayta kuylab, aniq eshitganlaridan so‘ng qo‘shiqni boshidan oxirigacha kuylashi mumkin. Qo‘shiqni to‘liq kuylayotganda bolalar o‘qituvchining ijrosiga syongan holda o‘zaro bir – birini eshitishga harakat qila boshlaydi. Bu holatni o‘qituvchi o‘z vaqtida anglab olib bolalarni ikki – uch g‘uruhga bo‘lib, navbat bilan qo‘shiq kuylatadi. Savol – javob tariqamida har qaysi guruhning qay darajada kuylaganligi aniqlanadi va o‘qituvchi tomonidan baholanadi. U bilan asarning badiiy obrazini tinglovchiga yetkazib kuylash vazifasi amalga oshiriladi. Bu vazifalarni o‘qituvchilarning bilim doirasini, ya’ni kuylash madaniyatini shakllantirmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki xorda badiiy ifodali qo‘shiq aytish har bir o‘quvchidan ma’lum darajada kuylash malakalarining murakkab doirasini talab qiladi. Bu malaka xorda kuylashning tarbiyaviy ahamiyatini belgilaydi.

Kuylash malakalarini mukammal bilish – yosh ijrochilarning estetik tarbiya jarayonida musiqaviy badiiy obrazini chuqur his qilishlarini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Bolalarda kuylash malakalarining shakllanishi to‘la musiqaviy tarbiyaning asosiy shartlarida biri amalga oshayotganligidan dalolat beradi.

Kuylash malakalarining shakllanishi jarayonini bolalarning har birining o‘z xususiyati va qo‘shiqchilik qobiliyatiga ham bog‘liqdir.

Chunki bolaning maktabga musiqaga, qo‘shiqqa bo‘lgan munosabati maktabdagi undagi kuylash malakalarining shakllanishiga va bilim olish natijalarining sifatiga ham ta’sir qiladi. Kuylash malakalarini shakllantirish jarayoni bir xilda kechmaydi. Bu jarayon ma’lum qonuniyatlarga bo‘ysungan holda maqsadga muvofiq yo‘nalishda amalga oshiriladi. Kuylash malakalarini shakllantirishning boshlang‘ich sinflarda quyidagicha uch bosqichda rivojlanishini ko‘rib chiqamiz:

***1. Oddiy elementar kuylashni o‘rganishga erishish;***

***2. Mazkur oddiy mashqlarni mustahkamlash va rivojlantirish;***

***3. Hosil bo‘lgan kuylash mahoratidan samarali foydalanish***

Shakllanishning birinchi bosqichidanoq bolalar kuylashga o‘rgatilib boriladi. Hozircha kichik diapozonda bo‘lsa ham iloji boricha toza, sof va ifodali kuylashga harakat qilish: quyilayotganda og‘iz va jag‘larni to‘g‘ri harakatga kelishini ta’minlash, yumshoq kuylashga o‘rganish, kuylash talaffo‘zini yaxshilash ovoz tembrini yorqinroq qilib borish kerak bo‘ladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirishda musiqa o‘qituvchisining ushbu malakalarini bir – biriga bog‘liqligini ta’minlashda erishishi muhim hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi bolalarning tovush pardasiga og‘irlik tushmasligi va ularning ovozlari charchab qolmasligi uchun kuylash faoliyatini tinglash faoliti bilan tez – tez almashtirib turishi kerak.

Ikkinchi bosqichda asosiy kuylash malakalar uning barcha qirralarida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Ular quyidagicha kechadi. Nafas yo‘llarida erkinlik hosil bo‘ladi, ovoz tembrini yorqinlashadi, ovoz hosil bo‘lishi usullari normallasadi. Kuylayotganda og‘iz va jag‘larning to‘g‘ri harakatga kelish usuli bir muncha yaxshilanadi, jarangdorlik va musiqaning eshitish qobiliyati rivojlanadi.

Oddiy mashqlarni mustahkamlash mumkin. O‘quvchilar lad qonuniyatlarini ham o‘zlashtirishadilar. Bu bilan musiqa savodi jarayoni bilan ham bog‘liqlikka erishish mumkin.

Soʻngi bosqichda kuylash malakalari rivojlangan darajada hosil boʻladi. Jarangdorlikning sof va ifodali boʻlishi ovoz hosil boʻlish uslubining mustahkamlanishini, ovoz tembri sifatining yanada oshishi ovoz diapozonini sezilarli darajada kengayishi kuylash hamda nafas olishning toʻgʻri va toʻla shakllanishi uchinchi bosqich uchun muhim boʻlgan omillardir. Bu bosqichda bolalar chuqur musiqaviy his – tuygʻu va toʻgʻri kuylashga erishgan boʻladilar. Oʻqituvchi bu bosqichda tovushlarning katta sakrashlar ishtirok etgan mashqlardan bevosita foydalanishi mumkin. Bu davrda turli xil kuylash malakalari orasidan oʻzaro oʻzviylik aloqasi vujudga keladi. Masalan, musiqaviy eshitish qobiliyatining rivojlanish darajasi ovoz tembrining sifatiga ovoz hosil qilish usuliga va boshqa malakalarga taʻsir qiladi. Kuylaganda nafas olishning toʻgʻri yoʻlga qoʻyilishida oʻqituvchining kuchli nazorati kuylashida ifodalikni ovoz tembri va qolgan barcha kuylash malakalari yaxshilanishi va samarali boʻlishiga olib keladi.

Oʻquvchilarda kuylash malakalari tarbiyalashning oʻz qiyinchiliklari boʻladi. Bolalar hali berilgan asarni toʻla tahlil qila olmaydilar. Dastlabki mashqda qoʻlga kiritilgan natijani keyingi mashqlarda ishlata olmaydilar: kuylash malakalari orasidagi bogʻliqlikni toʻliq koʻra bilmaydilar. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etishda oʻqituvchilarning musiqa tinglash va ijodiyotni toʻgʻri baholash muhim ahamiyatga ega. Kuylash malakalarini shakllanishida qayta kuylash mashqlari usulining maqsadga muvofiq ravishda bajarilishi muhimdir. Qayta kuylash usulining ikkita sharti mavjuddir:

Oʻquvchi kuylayotganda aynan nima qilishi va nimaga erishishi mumkin boʻlgan, puxta aniq bilimga ega boʻlishi kerak.

Oʻquvchi nimaga erishganini, har bir mashqning qanday natija berganini qanday xatolarga yoʻl qoʻyilganini bilishi kerak, keyingi mashqlar esa ushbu xatolarni bartaraf etishga qaratilgan boʻlishi kerak.

Birinchi shartning toʻgʻri bajarilishi uchun oʻqituvchi musiqa savodxonligi jarayoniga bogʻliqligiga va ikkila faoliyatning mantiqan bir – biriga mos boʻlishiga eʼtibor berishi kerak. Ikkinchi shartning bajarili qayta kuylash

mashqning ma'lum maqsadga qaratilganiga bog'liq. Bunda o'qituvchi har gal qayta kuylagan mashqni bolalar bilan o'z vaqtida tahlil qilib borishi kerak.

Kuylash malakalarining shakllanishidagi yuqorida qayd etilgan uch bosqichni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchilariga quyidagi tadbirlarni o'tkazish tavsiya etiladi;

***a) o'quvchilarning ohangdoshlikni his etishga erishi;***

***b) Har bir o'quvchining individual xususiyatini hisobga olish;***

***g) iloji boricha milliy cholg'u asboblardan foydalanish;***

***d) dars mobaynida qoniqmagan o'quvchilarini musiqa to'garaklariga jalb qilish.***

Musiqa o'quvchisi bolalarning ohangshiligini his etish qobiliyatini o'rganish uchun avvalo ularning maktabgacha olgan tarbiyasini o'rganish kerak bo'ladi. Eng avvalo bolalarga tanish bo'lgan qo'shiqlarni mashq qilish ushbu tadbirni amalga oshirishga yordam beradi. Tabiiyki, bolalarning ohangdoshlikni his etish qobiliyati turli xil bo'ladi. Mashqlar uch – to'rt darslardan boshlab, qobiliyatiga qarab uch guruhga bo'lib o'tkaziladi. Kichik mashqlarni kuylayotganda bolalarning individual – musiqiy qobiliyatini aniqlab o'rganish mumkin bo'ladi.

Bu yerda individual xususiyat har bir o'quvchining musiqaga munosabati ovoz pardasining kuylash holati, nafas olish yo'llari, talaffuz ifodasi kabi xususiyatlar nazarda tutilayapti. Bu xususiyatlarning to'g'ri shakllanishida uchta guruhga bo'lib o'tkazish maqsadga muvofiq.

Kuylash malakalarining ijobiy shakllanishiga milliy cholg'u asboblarning bevosita ta'siri muhim ahamiyatga ega. Lekin Ovrupa cholg'u asboblarning ham bu jarayonda muhim o'rnini borligini rad etib bo'lmaydi.

Jumhuriyatimizning barcha umuta'lim maktablarida ham turli cholg'u asboblari mavjud emas. Ko'pgina maktablarning musiqa darslarida doira, nog'ora, g'ijjak, tanbur, nay kabi o'zbek milliy cholg'u asboblardan kam foyalaniladi. Milliy cholg'ular ahamiyatini mukammal bilish, o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Demak, mana shu cholg'u



asboblaridan ko‘proq foydalanilsa kuylash malakali shakllanishi jarayonining natijasi bir muncha samarali bo‘lar edi.

45 minutlik dars mobaynida ayrim o‘qituvchilar qo‘shiq kuylashdan qoniqmaydilar. Bunday o‘quvchilarni o‘z vaqtida «qo‘shiqchilar ansambli» to‘garagi yoki bo‘lmasa «xor» to‘garagiga jalb qilish kerak. Bu kuylash malakalarining rivojlanishi uchun bir olg‘a qadam bo‘ladi. Bu ishlar keyingi darslar mobaynia, bu o‘quvchilarning yaxshi idrok eta olmaydigan o‘quvchilarga albatta, ijobiy ta’sir bo‘ladi.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda zamonaviy musiqa madaniyati darslarini badiiy-pedagogik asar deb hisoblash mumkin, chunki uni o‘qituvchi o‘z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, lining badiiy-pedagogik g‘oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o‘quvchilarda musiqaga qiziqishni o‘stirish, ularga musiqa san‘ati va madaniyatining ma‘naviy mavzusini singdirish, zamonaviy musiqali-ijodiy faoliyatini anglash — bular hammasi o‘qituvchinijig ijodiy sohasiga kiradi.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda o‘qituvchi musiqa darsi rejasini tuzganda maqsad, vazifasini, mavzusini, turini va o‘qitish shakllarini, musiqa faoliyatlarini va ularni o‘quvchilarga singdirish uchun kerakli metodlar, texnologiyalar va usullarni aniqlab, so‘ng darsning ssenariysini tuzadi. Dars bir umumiy sxemada tuziladi. Har bir faoliyat turlari: musiqa titiglash, jamoa bo‘lib kuylash, musiqa savodi, ritmik harakatlar, musiqa cholg‘u asbobiga jo‘r bo‘lish, o‘yinlar - bir-biri bilan bog‘lanib, uzviylashtirilgan bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilarni darsda faol qatnashtirish uchun turli xil texnologiyalar, vositalar, metod usullari va yo‘llari ishlatiladi.

Ma‘lumki, musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda har qanday pedagogik texnologiya ta‘limning yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta‘lim tamoyillariga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchi va o‘qituvchilarning hamkorligi, o‘zaro muloqoti, bir-biriga ko‘rsatadigan ta‘siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozhn. Bundayjarayonda o‘quvchilar bilan

hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi. Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda o'quvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiya turini tanlash dars va mashg'ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir.

O'qitish jarayonida musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda qo'llaniladigan usullar juda ko'p. Bu usullar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'pchilikni o'qitishga yoki individual ta'lim berishga mo'ljallangan bo'ladi. 2-sinf o'quvchilarining tabiatan o'yinqaroq bo'lishini hisobga olgan holda, ularni darsga ko'proq qiziqtirish uchun «o'yin usulidagi darslardan» foydalanish mumkin.

Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etishda darsning har bir elementini amalga oshirishda uning mohiyatini bolalar bilimi va hayotiy tajribalariga asoslanib tushuntirish lozim.

## **X U L O S A.**

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar musiqa ta'limini tizimida ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shaxsni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash muammosini hal qilish bugungi kun davr talabidir. Ayni vaqtda yoshlarni milliy musiqiy merosimizga hurmat, vatanga muxabbat ruxida tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilar olidida turgan, kichiktirib bo'lmaydigan vazifalardir. "Musiqa ta'limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatish uslublari mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi xulosalarga keldik.

1. Musiqada ijodiy faoliyatni tashkil etish musiqiy ta'limda o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatishning nazariy asoslari amaliy jihatdan puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash va musiqa darslarida notaga qarab kuylash faoliyatlarini yanada unumli hamda yuqori saviyada ishlab chiqishga bog'liqligi aniqlandi.

2. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda o'quvchilarda ijodiy jarayonlarni tashkil etish yuzasidan yozgan malakaviy bitiruv ishimizda musiqiy dasrlari jarayonida ijodiy faoliyatdan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning musiqa darsariga bo'lgan qiziqishini oshirishga erishish mumkinligi aniqlandi

3. Maktabda o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatish orqali kuylayotgan turli ovoz sozlash mashqlari, ayniqsa yangi o'rganilayotgan qo'shiqlar osonlik bilan o'zlashtirilishi yaqqol sezildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki maktabda musiqa darslarida ijodiy faoliyatni tashkil etish orqali o'quvchilarning nazariy bilimlaridan amalyotda samarali foydalanishning ayrim amaliy usullari bayon etildi.

4. Maktabda o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatishni takomillashtirishning shart-sharoitlari va usullari orqali o'quvchilar ovozinig shakllanishi va uni saqlash, o'quvchilarning notaga qarab ko'ylashga o'rgatishning dastlabki tashkiliy jarayonida musiqa madaniyati darslarida kuylash ishlaridan foydalanish yanada yaxshilandi.

5. Shaxs faoliyat jarayonining psixologik-pedagogik tahlili jarayonida yoshlarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda qo'shiqning roli, musiqa darslarida notaga qarab kuylash ishalaridan foydalanishning uslubiy vositalari, qo'shiqlarni yanada aniq va nafis kuylashga asosiy e'tiborni qaratildi.

6. Musiqa darslarida o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatishni takomillashtirish orqali o'rganilayotgan ashulani ijro etish rejasiga qarab qattiq tovushdan yoki nafas tovushdan qo'shiq kuylash va uni o'rgatish uslubiyotida samarali foydalanildi

7. Qo'shiq ijrochiligi orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatga o'rgatish metodikasi orqali o'quvchilarning kuylash madaniyatini takomillashtirishning usullariga, qo'shiqni o'rganish jarayonining boshidan to oxirigacha ijroni ifodaviyligiga ahamiyat berildi.

8. Maktabda o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatishning takomillashtirish o'quvchilarni musiqaviy madaniyatini shakllantirishda, vokal-xor malakalari asosida kuylashga o'rgatishda, ularni kuylash malaka va ko'nikmalarini egallashlarida katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o'quvchilarning musiqiy


saviyasini oshirishdagi yetakchi omillardan hisoblanib musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshiradi.

## *Ilovalar*



## Musiqafaoliyatiturlari

### Musiqatinglash




## **Tinglab raqsga tushamiz.**

Andijon polkasi. Xalq kuyi.

SHo'x



**Jamoa bo'lib kuylash**





## Musiqaga mos harakatlar bajarish



# Bolalar cholg'ularida ijro qilish

CHertmak

xalk kuyi



## **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.-T.: O'zbekiston, milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: Ma'naviyat, 2011y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi." -T.: Ma'rifat, 2014-y
5. O'zbekiston Davlat Standarti. 5141000-musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar. -T 2008y.
6. An'anaviy qo'shiqchilik va maqom asoslari. Fan dasturi. Tuzuvchilari: Q.Mamirov, M.Mamirov, -T.: 2001y.
7. Axmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi.-T.: Aloqachi, 2008y.
8. Fayzullayev E. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish.-T.: 2008yil.
9. Ibrohimov O. Musiqa. 4-sinf uchun darslik.-T.: G' G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2009y.
10. Ismoilova M.E. "Alla mavzusiga bag'ishlangan dars". Pedagogik ta'lim jurnali, -T.: 2-son 2004y.
11. Mansurov A, Karimova D. Musiqa. 5-sinf uchun darslik. -T.: G' G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2008y.
12. Mamirov Q, S.Begmatov. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. -T.: G' G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2010y.
13. Nosirov R. Xalq qo'shiqlari kompazitsiyasi.-T.: Fan, 2006y.
14. Nurmatov H, N.Norxo'jayev. Musiqa alifbosi. 1-sinf uchun darslik.-T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2010y.
15. Nurmatov H, N.Norxo'jayev. Musiqa. 2-sinf uchun darslik.-T.: -G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2008y.

16. Nurmatov H, N. Norxo'jayev. Musiqa. 3-sinf uchun darslik.-T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2008y.

17. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash (monografiya)-T.: Fan, 2009y.

18. Soipova D. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish.-T.: 2006y.

19. Yuldoshev S. Xalq urf-odatlari va an'analari.-T.: -Ijod dunyosi, 2003y

20. Sharipova. G Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.-T.: -TDPU-2004y.

**Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetining “Musika ta’limi yo`nalishi” bitiruvchi kurs talabasi Jamolov Farxod Ulug’bekovichning “Musika ta’limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o’rgatish uslublari” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

## **Ilmiy rahbar xulosasi**

Umumta’lim maktablari musika madaniyati fani dasturlari mazmunida musiqiy qiziqishlarini shakllantirishga yetakchi ahamiyat berilgan. “Musika madaniyati” fani orqali o’quvchilarda Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari shakllantirish bugungi kunda eng muhim masalalardan biridir. Did insonga xos fazilat hisoblanib u musika darslarida olib boriladigan nazariy va amaliy bilimlar orqali shakllanib boradi.

Jamolov Farxod o’zining “Musika ta’limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o’rgatish uslublari” mazkur ilmiy-tadqiqot ishida o’quvchilarda musiqiy va badiiy **qiziqishlarini** qanday shakllantirishning pedagogik va uslubiy negizini yoritib berishga harakat qilgan. Ishning 1-bobi mazmunida Musiqiy faoliyatlar va ularning badiiy hamda pedagogik xususiyatlari tushunchalarini adabiyotshunoslik, san’atshunoslikka oid manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Shu o’rinda Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlariga oid asarlar g’oyaviy badiiy mazmuni orqali estetik tarbiyalashga xizmat qilishi tushuntirib berilgan.

Ishning 2-bobida esa sinf o’quvchilarini musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish imkoniyatlari shakllantirishning shakl va usullari va pedagogik mazmuni yoritib berilgan. Bundan tashqari musiqiy asarlar orqali (tinglash, kuylash va asarni tahlil qilish) o’quvchilarning musiqiy-badiiy didini qay darajada shakllanganligini alohida ko’rsatib bergan. Chiqarilgan xulosa va muallifning o’z izlanishlari samarasi o’laroq bergan tavsiyalari ham ilmiy qiymatga egaligi bilan diqqatga molikdir. Ushbu bitiruv ishi umumta’lim maktablari musika o’qituvchilari, talabalar uchun foydali manba bo’lib xizmat qilishi mumkin.

Ishni muhim dolzarb muammoni tadqiqiga bag’ishlangan izlanish sifatida baholash va himoyaga tavsiya etish mumkin.

**Ilmiy rahbar:**

**o’qituvchi I.F.Qayumov**

**Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetining**

**“Musiqqa ta’limi yo`nalishi” bitiruvchi kurs talabasi**

Jamolov Farxod Ulug’bekovichning

“Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o’rgatish uslublari”

**mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

## **Taqriz**

Umumta’lim maktablari musiqqa madaniyati fani dasturlari mazmunida musiqiy qiziqishlarini shakllantirishga yetakchi ahamiyat berilgan.

Insonning go’zallik tuyg’usini taraqqiy ettirmay turib, ma’naviy barkamol inson haqida ga’irib bo’lmaydi. Toki odamzod o’zini qurshab turgan tashqi olamda, o’zi yashayotgan jamiyatda, o’zi bilan muloqotda bo’layotgan kishilarda tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilinayotgan badiiy ijod namunalarida mujassamlashgan go’zallikni his qila olmas ekan, hech qachon ma’naviy barkamol inson darajasiga ko’tarila olmaydi

Jamolov Farxod o’zining “Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o’rgatish uslublari” mazkur ilmiy-tadqiqot ishida o’quvchilarda musiqiy va badiiy **qiziqishlarini** qanday shakllantirishning pedagogik va uslubiy negizini yoritib berishga harakat qilgan.

Ishning 1-bobi mazmunida Musiqiy faoliyatlar va ularning badiiy hamda pedagogik xususiyatlari tushunchalarini adabiyotshunoslik, san’atshunoslikka oid manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Shu o’rinda Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlariga oid asarlar g’oyaviy badiiy mazmuni orqali estetik tarbiyalashga xizmat qilishi tushuntirib berilgan.

Bundan tashqari musiqiy asarlar orqali (tinglash, kuylash va asarni tahlil qilish) o’quvchilarning musiqiy-badiiy didini qay darajada shakllanganligini alohida ko’rsatib bergan.

Ushbu bitiruv ishi umumta’lim maktablari musiqqa o’qituvchilari, talabalar uchun foydali manba bo’lib xizmat qilishi mumkin

**Taqrizchi:**

**katta o’qituvchi SH.U.Norova**

**Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetining**

**“Musiqqa ta’limi yo`nalishi” bitiruvchi kurs talabasi**

Jamolov Farxod Ulug`bekovichning

“Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o`rgatish uslublari”

**mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

### **Taqriz**

“Musiqqa madaniyati” fani orqali o`quvchilarda Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari shakllantirish bugungi kunda eng muhim masalalardan biridir. Did insonga xos fazilat hisoblanib u musiqqa darslarida olib boriladigan nazariy va amaliy bilimlar orqali shakllanib boradi.

Jamolov Farxod o`zining “Musiqqa ta’limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o`rgatish uslublari” mazkur ilmiy-tadqiqot ishida o`quvchilarda musiqiy va badiiy **qiziqishlarini** qanday shakllantirishning pedagogik va uslubiy negizini yoritib berishga harakat qilgan.

Ishning 1-bobi mazmunida Musiqiy faoliyatlar va ularning badiiy hamda pedagogik xususiyatlari tushunchalarini adabiyotshunoslik, san’atshunoslikka oid manbalarga tayangan holda tahlil qilingan.

Ishning 2-bobida esa sinf o`quvchilarini musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish imkoniyatlari shakllantirishning shakl va usullari va pedagogik mazmuni yoritib berilgan.

Ushbu bitiruv ishi umumta’lim maktablari musiqqa o`qituvchilari, talabalar uchun foydali manba bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etish barobarida yuqori baholanishiga aminman.

**Taqrizchi:**